

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Tairov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabihev	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
P.A.Arslonzoda	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli	424
X.T.Mirzaev	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



УО'К 94(575.4):32

**ANUSHTEGINIYLAR SULOLASI DAVRIDA IJTIMOIY HAYOT (AHOLI TURMUSH TARZI
VA MASHG'ULOTLARI MISOLIDA)**

**ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ АНУШТЕГИНОВ (НА
ПРИМЕРЕ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗАНЯТИЙ НАСЕЛЕНИЯ)**

**SOCIAL LIFE DURING THE ANUSHTEGIN DYNASTY (ON THE EXAMPLE DAILY
ACTIVITY OF THE POPULATION)**

Toirov Akobir Olimjon o'g'li 

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya

Maqolada O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan anushteginiylar sulolasi davridagi aholining umumiy tarkibi (xo'jalik mashg'ulotiga ko'ra) hamda qatlamlari o'rganilgan. Anushteginiylar sulolasi davri tarixiga oid manbalarning juda oz qismida aholining tarkibi haqida ma'lumot berilgan. Ishda shu yo'naliishga oid manbashunoslik tadqiqoti, oldingi sulolalar davri bilan qiyoslash, noma'lum jihatlarda tarixiy maketlashtirish va boshqa metodlardan foydalанини. Anushteginiylar sulolasi davrda aholining tarkibida birinchi navbatda hukmdor va uning oilasi bo'lishi tabii. Tadqiqotda ushbu davrda aholining tarkibi xo'jalik turmush tarzi jihatidan harbiylar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va chorvadorlarga bo'lingani ko'rish mumkin. Ular umumiy "raiyat" deb nomlanib, "xazinaga soliq to'lovchilar" degan nom bilan atash ham mumkin. Aholi qatlamlari bu davrda hukmdorlar va shariat tomonidan belgilangan bo'lib, bu orgali davlatdagи umumiy aholining o'mi va majburiyatları belgilangan. Misol uchun sayidlar va ulamolar aholining ma'naviy jihatdan birligi ramzi sifatida mavjudligi rag'batlantirilgan bo'lsa, oqsoqollar aholini kichik birlikda davlat hayotida ishtirok etishida ta'minlash masalasida muhim shaxslar bo'lgan. Qozilar tabiiy-ki shariat va adolatni ta'minlovchilar sifatida aholining muhim qatlamlaridan bo'lgan. Anushteginiylar sulolasi davrda aholining umumiy tarkibi ularni nimalar bilan shug'ullangan, qatlamlar esa davlat va jamiyat hayotida qanday o'rin tutgani bilan belgilangan. Bu mezonlar tariximizni deyarli barcha davrda kuzatilgan deyish ham mumkin.

Аннотация

В статье рассматриваются общий состав (по хозяйственному занятию) и слои населения в период династии Ануштегинов, сыгравшей важную роль в истории узбекской нации и государственности. Очень немногие исторические источники династии Ануштегинов дают сведения о составе населения. В работе использовались источникование, сравнение с периодом предыдущих династий, историческое моделирование в неизвестных аспектах и другие методы. Во времена династии Ануштегинов естественно, что население состояло преимущественно из правителя и его семьи. В исследованиях видно, что состав населения в этот период по хозяйственному образу жизни делился на солдат, земледельцев, ремесленников, торговцев и скотоводов. Их все вместе называют «райятами», а также их можно назвать «налогоплательщиками в казну». В этот период слои населения определялись правителями и шариатом, тем самым определяя роль и обязанности широких слоев населения в государстве. Например, присутствие сейидов и ученых поощрялось как символ духовного единства населения, а старейшины были важными лицами в вопросе обеспечения участия населения в жизни государства в небольшом подразделении. Судьи, конечно же, принадлежали к важным слоям населения как вершиители шариата и правосудия. При династии Ануштегинов общий состав населения определялся тем, чем они занимались, и какова была их роль в жизни государства и общества. Можно сказать, что эти критерии соблюдались практически на протяжении всей нашей истории.

Abstract

The article examines the general composition (by economic occupation) and strata of the population during the Anushtegin dynasty, which played an important role in the history of the Uzbek nation and statehood. Very few historical sources of the Anushtegin dynasty provide information about the composition of the population. The work used source study, comparison with the period of previous dynasties, historical modeling in unknown aspects and other methods. During the Anushtegin dynasty, it was natural that the population consisted mainly of the ruler and his family. The studies show that the composition of the population during this period, according to their economic way of life, was divided into soldiers, farmers, artisans, traders and cattle breeders. They are collectively called "rayats", and they can also be called "taxpayers to the treasury". During this period, the strata of the population were determined by the rulers and the Sharia, thereby defining the roles and responsibilities of the general population in the state. For example, the presence of

sayyids and scholars was encouraged as a symbol of the spiritual unity of the population, and elders were important persons in ensuring the participation of the population in the life of the state in a small unit. Judges, of course, belonged to important segments of the population as arbiters of Sharia and justice. Under the Anushtegin dynasty, the general composition of the population was determined by what they did and what their role was in the life of the state and society. We can say that these criteria have been observed throughout almost our entire history.

Kalit so'zlar: anushteginiyalar, ijtimoiy hayot, aholi tarkibi, aholi qatlamlar, devon al-ard, shariat, raiyat.

Ключевые слова: ануштегиниды, общественная жизнь, состав населения, спои населения, дөвнөн аль-ард, шариат, райят.

Key words: Anushteginids, social life, composition of the population, strata of the population, Dewan al-ard, shariat, raiyat.

KIRISH

IX-XII asrlarda Turon hududida hukmronlik qilgan sulolalar davri o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida muhim o'rinn egallaydi. Bu davr yurtimiz tarixida "Sharq uyg'onish davri" deb nomlanib, nafaqat ilm-fan balki, jamiyat hayotining deyarli barcha sohasida yuksalish kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan aholining turmush tarzi va farovonligi oshganligi ko'plab manbalardagi ma'lumotlar bilish mumkin. Anushteginiyalar sulolasining hukmronligi va qudrati ulkan bo'lganligi aholi hayotida ham farovon bo'lganligi va uning tarkibi hamda qatlamlari turli xil bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Anushteginiyalar davri tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalarning deyarli barchasida ijtimoiy hayotiga oid ma'lumot mavjud. Lekin ularning ko'p emasligi va siyosiy hayotga oid ma'lumotlarni ko'pligi manbalarni sinchikovlik bilan tadtiq qilishni talab etadi. Bu davr ijtimoy hayotiga oid birlamchi manbalar sifatida Muhammad Muayyid Bag'dodiyning "Tavassul ila-at-tarassul" to'plами [9], Yoqut Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" [4], Shihobiddin Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi" [8], Muhammad Rovandiyning "Rohat as-sudur" [2] va Atomalik Juvayniyning "Tarixi Jahonkusho" [3] larni ko'rsatish mumkin. Sovet davrida bevosita shu yo'nalişda Z.Buniyatovning monografiyasi, A.Semyonovning [7] maqolasini, xorijda H.Horst [1], M.Gurbuz [5] va mustaqillik davrida S.Saburovalarni [6] ilmiy ishlarni nashr etganlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Anushteginiyalar sulolasasi davrida hukmdor davlatning mutloq hokimi va barcha idora qilish tizimining boshlig'idir. Uning xizmat vazifasi, burchi davlatni boshqarish va xalqning farovonligi va havfsizligini ta'minlash kabi masalalardan iborat bo'lgan [5,64]. Xorazmshoh Otsiz xalifa Muktafiyga yuborgan maktubida otasining qilgan ishlarni madh etganidan keyin "man a shu tarzda Xuroson va Xorazm aholisi jonlari va mollari haqida shubha qilmasdan, ishonchli, havfsiz tarzda yashadilar" [1,30] – deb yozadi. Sulton Muhammad davri esa "har bir qishloq aholisi uning davrida podshoh kabi yashadi" [5,64] xalqning farovon turmushi ta'minlanganligiga ishora qilingan.

Anushteginiyalar davrida markaziy boshqaruvidagi va joylardagi amaldorlar asosan ular uchun ajratilgan mulklar, yerlardan kelayotgan daromaddan moddiy rag'bat olgan. Kichik saroy va mahkama tizimida xizmat qiluvchilarga esa xazinadan ajratilgan maosh va boshqa rag'bat (bug'doy, yog', matolar, chorva) lar bilan ijtimoiy ta'minoti yo'lga qo'yilgan. Amaldorlar va davlat xizmatchilarini mavqeい saltanatda hukmron tabaqa vakillaridan keyin harbiylar bilan bir qatorda turgan.

Harbiylar, jangchilar ham aholining katta qismini egallagan. Saltanat qo'shinlarining son tarkibi anushteginiyalar yurishlarining ko'lamiga qarab turlicha bo'lgan. 1195 yilda 170 ming otliq anushteginiyalar yurishlari uchun doimiy shay holatda bo'lgan [2,114]. Hukmronligining dastlabki yillarida Muhammad Xorazmshoh bir necha kun ichida 70 ming otliq askarni qaytadan shakillantirgan [3,322]. Muhammad Xorazmshoh 1214 yilda 1214 yilda Iroqqa yurishida Ozarbayjon va Forsning fors hukmdorlari, Otobek O'zbek va Sa'daga qarshi juda katta qo'shin bilan yurish qilgan va 100 ming otliq va shundan bir necha barobar ko'p boshqa askarlarni, eng jasur va qahramonlarni tanlab oladi [8,57]. Otobek O'zbek o'zini Sulton Muhammadning vassali deb bilganidan so'ng, undan gurjilarga qarshi harbiy yordam ko'rsatishni so'radi va Muhammad tanlangan qo'shinlardan 50 ming otliqqa gurjilarga hujum qilishni buyurgani ma'lum [8,61]. Harbiy devonining Bag'dodga qarshi yurishida (1215 yil) 400 minglik (piyoda, otliq va tuyada) qayd etilgan umumiyoq qo'shin haqida rasmiy hujjalarni bilan tasdiqlangan Ushbu sonlardan ham mamlakatda dimiy qo'shin soni juda ko'p bo'lganligini anglash mumkin.

TARIX

Devon al-ard harbiy ulushlar (iqtolar), barcha darajadagi askarlarga barcha turdag'i maoshlar va to'lovlar, shuningdek, qo'shinlar va ularning qorollarini nazorat qilish va hisobga olish bilan shug'ullangan. Devon al-ard barcha askarlarga (mutajonnida) belgilangan maosh (mavojib, arzoq) ni ma'lum bir vaqtida to'lab turar, ularga zarur bo'lgan hamma narsani (xuquq) berib turar va qo'mondon tomonidan qo'l ostidagilarga maosh to'lanishining to'g'riliqini nazorat ham qilgan [1,39].

Raiyatning vazifasi yuqorida berilgan buyruqlarni so'zsiz bajarish va soliq to'lashdan iborat edi. Shariatga ko'ra huquqiy jihatdan "barcha musulmonlar tengdir". Biroq, shunga qaramay, tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit taqozosi bilan shakllangan tushunchalarga muvofiq, raiyat diniy yo'l-yo'rqliarga rioya qilish bilan bir qatorda, davlat mansabdorlariga itoat etishi lozim edi. Hukmdor esa, o'z navbatida, raiyatning hayotini, mol-mulkini va or-nomusini himoya etish, uni muayyan bir farovonlikka erishtirish uchun mas'ul bo'lgan. Xorazm sultoni Takashning ba'zi farmonlarida raiyatga nisbatan adolatli bo'lish, dehqonlarning manfaatlarini himoya qilish va soliq olishda qonunlarga rioya etish to'g'risida amr etilgan [9,104]. Sultan Jaloliddin ham qiyin ahvolga tushib qolgan Tabriz shahri va uning atrofida yashovchi dehqonlarni uch yil davomida soliqlardan ozod qilish to'g'risida farmon bergan [8,198]. Anushteginiylar davri ijtimoiy hayotda hukmron tabaqa, amaldor va harbiylardan tashqari bo'lgan aholi raiyat deb yuritilib ularga asosan, o'troq shahar va qishloq aholisi kirgan. Ko'chmanchi chorvadorlar raiyatga mansub bo'lmagan [7,17].

Siyosiy huquq jihatidan bir-biridan farsiz bo'lgan keng omma ichida iqtisodiy va ijtimoiy holatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ko'p tabaqalar bo'lgan. Raiyat tarkibiga kiruvchi son jihatidan eng katta qismi savdogarlar, dehqonlar va hunarmandlar edi. Savdogarlar, ijtimoiy jihatdan badavlat tabaqalar sinf edi. Ichki va tashqi savdoda katta rol o'ynaydigan bu toifaga hukmron sulola mansublari va davlat amaldorlari mablag' berib turgan [6,49]. Bu toifaga mansub kishilar badavlat, hashamatli hayot kechirsa-da, do'stlari yordamida katta obro' qozongan bo'lsada, davlat rasmiy rasm-rusumlariga qatnasha olmasdilar.

O'rta hol va mayda savdogarlar, hunarmandchilikning turli sohalariga sarmoya solgan badavlat yoki o'rta hol toifa, mayda do'kondorlar, mehnati orqasidan kun ko'rvuchi hunarmandlar alohida-alohida sexlar tarzida uyushgan edilar. Katta shaharlarda ishsizlar va turli-tuman kelgindilarni katta guruhi mavjud bo'lgan. Ularni shahar mirshablari qattiq nazorat ostida tutgan. Biroq, shunga qaramay, ular alohida bir uyushma bo'lganligi uchun ham fursat topdi deguncha g'avg'olar chiqarishi mumkin edi. 12-yuz yillikda bu toifa Hirotda "zuxd" (rindlar), Tus va Xuroson (xususan Marvda) da esa "ayyoron" deb atalgan [4,102].

Dehqonlar hayoti va dehqonchilikka hukumat darajasidagi e'tibor ularni, umuman qishloq aholisining turmush darajasi ancha yuqori bo'lishiga zamin yaratgan. Yer egaligini asosiy ko'rinishi bo'lgan iqtolardagi iqtodor ham sug'orish ishini yaxshilash, dehqonchilikka mablag' sarflash yo'lli bilan qishloq iqtisodiyotini ko'tarishga xizmat qilganlar. Saljuqiylar davlatining oxirgi sultoni Sanjar (1118-1157) hukmronlik qilgan so'nggi yillarda g'alabasiz yakunlangan urushlar, o'g'uzlarning isyoni Turonni shahar va qishloqlarining turmush darajasi pasayishiga sezilarli sababchi bo'ladi [6,49]. Xorazmshohlar qo'liga o'tgan vaqtida bu o'lka ilgarigi boyliklaridan mahrum bo'lgan edi. Qishloqlarda yeri bo'lmaganlar dehqonlar asosan Mulki Sultoniy (davlat yerlari) yoki iqto yerlarda ijara asosida ishlab hosilni 1\3 yoki 1\4 qismini o'zlarida olib qolishgan. Ayni chog'da katta yerlarga va sarmoyaga ega bo'lgan dehqonlar ham mavjud bo'lib, ular qishloq zodagonlari toifasiga mansub edilar [7,15].

Hunarmandlik Turon diyoridagi azal-azaldan an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qorollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan ho'jalik turi sifatida rivojlanib kelgan. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng mazkur hududda keng tarqalgan, ayrim sohalari hozir ham saqlangan.

Bu davrda aholining ijtimoiy tarkibi keltirlganda, ular dehqonlar bilan bir bo'g'in vakillari sifatida ta'riflanadi. Ular har qanday holatda ham hukmron hokimiyat vakillari uchun kerakli hisoblangan. Ayniqsa urushlardan keyin shahar va qishloqlani tiklash maqsadida. Yoki g'oliblar o'z yurtlariga asirga tushganlardan hunarmandlarni alohida saralab olib ketishgan. Mo'g'ular shaharlardagi odam kuchini, ya'ni hunarmandlarni o'z mamlakatiga olib ketgandilar [5,247]. O'rta hol va mayda savdogarlar, hunarmandchilikning turli sohalariga sarmoya solgan badavlat yoki o'rta hol toifa, mayda do'kondorlar, mehnati orqasidan kun ko'rvuchi hunarmandlar alohida-alohida sexlar tarzida uyushgan edilar.

Ko'chmanchilar chorvachilik orqasidan kun ko'rishardi. Bu qabilalarning ehtiyoji uchun o'tloq va yaylovlarni ta'minlash, ular yuradigan yo'llar ustida joylashgan qishloq va ovullarni ko'chmanchilarning bosqinidan himoya qilish – davlat xavfsizlik xizmatining vazifalaridan edi. Qabila va urug'larning davlatga nisbatan huquqiy holati turlicha edi. Saljuqiylar davrida turkman, Xorazmshohlar vaqtida esa qangli-qipchoq urug'lari hukmron sulolaga yaqin bo'lganliklari uchun ayrim imtiyozlarga ega bo'lganlar. Qo'shinnning Sulton Muhammad davrida (1200 – 1221) katta qismi shu urug'lardan tashkil topgandi. Bu urug'lar harbiy vazifalarda xizmat qilganliklari uchun ayrim soliqlardan ozod qilingan. Harbiy xizmatga majburiy jalb etilmagan boshqa urug'lar esa yuqorida keltirilgan raiyatga mansub bo'lganlar.

Sulton Takash Jand shahari hokimiga buyruqnomasida aholini turli tabaqalariga qanday munosabatda bo'lish kerakligi uqtiriladi. Unga ko'ra o'sha davrda quyidagi guruhlarni raiyat tarkibiga kirmasada, ular ham asosan shaharlarda yashaganliklari ma'lum [9,105]:

1. Sayidlar
2. Imom va ulamolar
3. Qozilar
4. So'fiylar
5. Oqsoqollar

Xatda yuqoridagi guruuh vakillarini nega jamiyat (raiyat) odida muhim ekanligiga izohlar keltiriladi. Misol uchun sayidlar kamchilik ko'rmasligi, ularning eg'tiyoji va tabarrukligi darajasidan kelib chiqqan holda taminlanishlari lozim deyilgan. Ya'ani payg'ambar avlodlari mavjud raiyatdagi insonlar har doim ma'naviy boylik yashaydi deb hisoblangan. Imomlar, ulamolar, so'fiylar va ularga yaqin kishilar "engilmas davlatimiz uchun bemalol duo o'qishlari va xalqni ham shu maqsadda birlashtirishlari uchun kerakli" deb ko'rsatiladi. Qozi va boshqaruvchilar qonunga rioya etib, adolatni talab qilishlari uchun, oqsoqollar esa davlatni g'amxo'rligini raiyatga yetkazish yo'lidagi asosiy tadbirlarni uyushturuvchi qilib ko'rsatilgan.

XULOSA

Tariximizni o'rganishda ijtimoiy hayot doimo iqtisodiy hayot tarkibida o'rganilgan. Tabiiy-ki ikkala yo'naliш xususiyatlari jihatidan bir-biriga yaqin. Lekin ba'zi jihatlar, xususan aholining tarkibi va tabaqalari ijtimoiy ahamiyat kasb qiladi. Aholi qatlamlari anushteginilar davrida hukmdorlar va shariat tomonidan belgilangan bo'lib, bu orqali davlatdagi umumiy aholining o'rni va majburiyatlar belgilangan. Misol uchun sayidlar va ulamolar aholining ma'naviy jihatdan birligi ramzi sifatida mavjudligi rag'batlantirilgan bo'lsa, oqsoqollar aholini kichik birlikda davlat hayotida ishtirok etishida ta'minlash masalasida muhim shaxslar bo'lgan. Qozilar tabiiy-ki shariat va adolatni ta'minlovchilar sifatida aholining muhim qatlamlaridan bo'lgan. Anushteginilar sulolasi davrida aholining umumiy tarkibi ularni nimalar bilan shug'ullangani, qatlamlar esa davlat va jamiyat hayotida qanday o'rin tutgani bilan belgilangan. Bu mezonlar tariximizni deyarli barcha davrida kuzatilgan deyish ham mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Horst, H. (1964) Die Staatsverwaltung der Grosselugen und Horazmçahs (1038—1231). Wiesbaden. Seite. 191.
2. Muhammed Ravandi. (1960) Rahat as-sudur. Türkçe tercümesi, A. Ateşe. Ankara. 303.
3. Ата-Мелик Джувейни. (2004) Чингисхан. История Завоевателя Мира. Москва. Издательский Дом МАГИСТР-ПРЕСС. – С. 715.
4. Ёкут ал-Хамавий. (1939) Мұжам ал-булдан // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Москва-Ленинград. – С. 603.
5. Гурбуз, М. (2022) Хоразмшоҳларда давлат ташкилоти, иқтисодий ва маданий ҳаёт. Урганч. «Оғаҳий нашриёти».
6. Сабурова, С. (2008) Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231 йй.). Тошкент. 285 бет.
7. Семёнов А. (1952) К вопросу об этническом и классовом составе северных народов империи хорезмшахов в XI в. э. (по актам того времени) // ИООН. АН.Тадж.ССР. Сталинабад. стр. 8-24.
8. Шихаб ад-дин ан-Насави. (1996) Сират ас-султан Джалал ад-Дин Манкбурны. Пер, З. М. Бунятов. Москва. "Наука". – С. 798.
9. بهاء الدين مؤيد بغدادي. آنوسن لا ت تراسول. (Баҳовуддин Муайид Бағдодий. (1315) Ат-тавассул ила-т-тарассул. Форс тилига Аҳмад Баҳмандиёр таржимаси. Техрон.)